

## XI. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 591 558,9 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,0 % ga ko'paydi. Shu jumladan eksport hajmi 199 286,7 ming AQSh dollariga (20,1 % ga ko'paygan) va import hajmi 392 272,2 ming AQSh dollariga (90,2 % ga ko'paygan). Tashqi savdo saldosi minus 192 985,5 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

**Viloyatning tashqi savdo aylanmasi  
(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	<i>ming AQSh dollari</i>	<i>2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Tashqi savdo aylanmasi	<b>372 165,0</b>	<b>591 558,9</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	152 021,3	210 127,5	35,5
boshqa davlatlar	220 143,7	381 431,4	64,5
Eksport	<b>165 917,6</b>	<b>199 286,7</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	106 033,9	148 241,1	74,4
boshqa davlatlar	59 883,8	51 045,6	25,6
Import	<b>206 247,3</b>	<b>392 272,2</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	45 987,4	61 886,4	15,8
boshqa davlatlar	160 259,9	330 385,8	84,2
Saldo	<b>-192 985,5</b>	x	x
MDH davlatlari	86 354,7	x	x
boshqa davlatlar	-279 340,2	x	x

*Ma'lumot uchun: Viloyat tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda - TIF TN) bilan birlgilikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda - XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtaida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

### **MDH va boshqa davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi yanvar-sentabr oylari (% da)**



*Viloyat rezidentlari tomonidan tashqi savdo operatsiyalari asosan Osiyo (jami Tovar aylanmasidagi ulushi 49,3 %), Yevropa (26,1 %) davlatlari bilan amalga oshirilgan bo'lib, jami savdo aylanmasining 75,4 % ini tashkil qildi.*

### **Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar (ming AQSh dollari)**

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Braziliya	142 352,3	0,9	142 351,3	24,1	-
Rossiya	118 730,4	73 499,2	45 231,1	20,1	153,0
Rossiya	94 857,3	22 432,1	72 425,2	16,0	160,3
Turkiya	84 640,7	8 302,5	76 338,1	14,3	87,0
Xitoy	41 030,9	37 736,3	3 294,6	6,9	192,4
Qozog'iston	27 491,5	26 956,6	534,9	4,6	91,0
Boshqa davlatlar	82 455,9	30 359,1	52 096,8	13,9	95,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,5 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 138,2 % ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 64,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 173,3 % ni tashkil qildi.

**Hududlar kesimida 2022-yil yanvar-sentabr oylarida  
eksport hajmi  
(ming AQSh dollari)**

	<i>Eksport</i>			<i>Jamiga nisbatan % ulushi</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan, %</i>	
<b>Xorazm</b>	<b>199 286,7</b>	<b>165 917,6</b>	<b>120,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
Urganch sh.	21 664,7	21 182,0	102,3	10,9
Xiva sh.	9 656,4	7 591,3	127,2	4,8
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	25 465,7	16 813,2	151,5	12,8
Gurlan	5 218,9	7 633,3	68,4	2,6
Qo'shko'pir	15 014,3	8 370,3	179,4	7,5
Urganch	16 761,5	15 687,2	106,8	8,4
Hazorasp	15 404,4	12 150,0	126,8	7,7
Tuproqqa'l'a	7 351,4	3 911,8	187,9	3,7
Xonqa	23 565,5	18 387,6	128,2	11,8
Xiva	15 980,4	11 738,4	136,1	8,0
Shovot	19 147,7	20 655,6	92,7	9,6
Yangiariq	11 335,1	11 798,3	96,1	5,7
Yangibozor	8 596,2	8 230,0	104,4	4,3


1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

**Hududlar kesimida 2022-yil yanvar-sentabr oylarida  
import hajmi  
(ming AQSh dollari)**

	<i>Import</i>			<i>Jamiga nisbatan % ulushi</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan, %</i>	
<b>Xorazm</b>	<b>392 272,2</b>	<b>206 247,3</b>	<b>190,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
Urganch sh.	88 826,9	63 313,4	140,3	22,6
Xiva sh.	13 462,4	9 387,2	143,4	3,4
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	4 969,3	13 201,3	37,6	1,3
Gurlan	5 367,0	8 621,4	62,3	1,4
Qo'shko'pir	2 917,4	6 173,7	47,3	0,7
Urganch	20 468,9	16 901,2	121,1	5,2
Hazorasp	11 643,4	12 484,5	93,3	3,0
Tuproqqa'l'a	153 766,0	17 954,1	8,6 m.	39,2
Xonqa	11 885,3	11 465,4	103,7	3,0
Xiva	3 411,0	7 012,4	48,6	0,9
Shovot	23 540,9	8 685,0	2,7 m.	6,0
Yangiariq	48 776,1	27 526,8	177,2	12,4
Yangibozor	3 190,5	3 454,1	92,4	0,8

1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

**Tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
*(mln. AQSh dollari)*



Tovar va xizmatlar eksport-import hajmlarining tahliliga asosan, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida eksport hajmi 199,3 mln. AQSh dollarni, import hajmi 392,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

**Tovar va xizmatlar eksportining o'zgarish sur'atlari dinamikasi**  
*(o'tgan yilga nisbatan, %)*




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o‘zgarish sur’atlarining tahliliga asosan, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 20,1 % ga ko‘paygan.

### **MDH va boshqa xorijiy davlatlarga eksport tarkibi**

XSST tarkibi	ming. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>199286,7</b>	<b>148241,1</b>	<b>51045,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirkik hayvonlar	60741,0	52876,5	7864,5	30,5	35,7	15,4
Ichimliklar va tamaki	2,4	2,4	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xom ashyo yoqilg‘idan tashqari	3817,4	934,1	2883,2	1,9	0,6	5,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	3415,3	2534,0	881,3	1,7	1,7	1,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1317,2	266,4	1050,8	0,7	0,2	2,1
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	578,1	574,1	4,0	0,3	0,4	0,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	86182,8	53007,6	33175,2	43,2	35,8	65,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	195,3	106,2	89,1	0,1	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	31060,2	30028,4	1031,8	15,6	20,3	2,0
Xizmatlar	11977,1	7911,4	4065,7	6,0	5,3	8,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### XSST bo‘yicha eksport tarkibi (ming AQSh dollari)



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar
Ichimliklar va tamaki	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari
Nooziq-ovqat xom-ashyo yoqilg‘idan tashqari	Mashinalar va transport asbob-uskunalari
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	Turli xil tayyor buyumlar
Xayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	Xizmatlar


Eksport tarkibida tovar va xizmatlar xajmi 199 286,7 ming AQSh dollarni tashkil etib, eng yuqori hajm, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (86 182,8 ming AQSh dollari) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (60 741,0 ming AQSh dollar) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## MDH va boshqa xorijiy davlatlarga import tarkibi


XSST tarkibi	ming. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>392272,2</b>	<b>61886,4</b>	<b>330385,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	152323,3	5783,0	146540,2	38,8	9,3	44,4
Ichimliklar va tamaki	99,7	99,7	0,0	0,0	0,2	0,0
Nooziq-ovqat xom ashyo yoqilg‘idan tashqari	28236,3	25963,5	2272,8	7,2	42,0	0,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	5439,4	3022,3	2417,0	1,4	4,9	0,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2076,1	1785,7	290,4	0,5	2,9	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	11115,1	4728,9	6386,3	2,8	7,6	1,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	28269,3	8828,5	19440,8	7,2	14,3	5,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	148787,2	9664,2	139123,0	37,9	15,6	42,1
Turli xil tayyor buyumlar	15925,7	2010,4	13915,3	4,1	3,2	4,2

Import tarkibida tovarlar hajmi 392 272,2 ming AQSh dollarni tashkil etib, eng yuqori hajm oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (152 323,3 ming AQSh dollar), mashinalar va transport asbob-uskunalar (147 787,2 ming AQSh dollar), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (28 269,3 ming AQSh dollar) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## XSST bo‘yicha import tarkibi (ming AQSh dollarri)




### Tovarlar va xizmatlar importing o‘zgarish sur’atlari dinamikasi (o’tgan yilga nisbatan,




Shuningdek, tovarlar importi o‘zgarish sur’atlarining tahliliga asosan, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar o’tgan yilning shu davriga nisbatan 90,2 % ga ko‘paydi.

## Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi % da

**2021- yil  
yanvar-sentabr**



**2022- yil  
yanvar-sentabr**



Xitoy	Braziliya
Turkiya	Xitoy
Rossiya	Turkiya
Koreya Respublikasi	Rossiya
Qozog‘iston	Hindiston
Ukraina	Germaniya
Boshqa davlatlar	Boshqa davlatlar

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga 52 ta xorijiy davlatlardan tovar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo‘lgan Braziliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston hamda Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 348 610,0 ming AQSh dollariga teng. Bu esa umumiyl import hajmining 88,9 % ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.